

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

## AL-BUKHARI

Scientific journal

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

## AL-BUKHARI

Scientific journal



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinci son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

*Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)*

Bosh muharrir o‘rinbosari:

*Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor*

Mas’ul muharrir:

*Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

### “Al-Buxoriy”

#### ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

## MUNDARIJA

### FILOLOGIYA

<b>Murtazo Saydumarov, Homid Abbos Xon</b> “Al-a’sho ko’chasidagi ishq qissalari” romanida an’ana va erkinlik o’rtasidagi ziddiyatlar .....	4
<b>Qurbonov Zayniddin Oltinovich, Oltinova Bahora Zayniddinovna</b> O‘zbek tilida frazeologizmlar etnosotsiopragmatik aspekt sifatida .....	17
<b>Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi</b> Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi dolzarbligi xususida .....	25
<b>Adambayeva Nargiza Kadambayevna</b> Inglizabon tadqiqotlarda XIX asr Xorazm turkiy adabiy manbalari .....	34
<b>Xasanov Islombek Xasanboy o‘g‘li</b> Arab tilida uslubiyatning tarixiy shakllanishi .....	44
<b>Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich</b> Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va axloqiy normalarning ifodalanishi .....	57
<b>Xaydarova Munira O‘tkir qizi</b> Xiyazm stilistik vositasining nazariy asoslari.....	70

### TARIX

<b>Арипова Зухра Джахангировна</b> Система образования в медресе «султанья» в Египте .....	80
<b>Tayronov Yoqubjon Rapiqovich</b> XIX asr ikkinchi yarimida Turkistonda mahalliy tadbirkorlarning yangi avlodining shakllanishi .....	94
<b>Djurayev Ikrom Nematovich</b> Markaziy osiyoda qadimgi davr ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlari .....	105
<b>Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich</b> O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi: nazariy-metodologik yondashuvlar va akademik A.Asqarov qarashlari .....	115
<b>Kamolov Jahongir Mamasidiqovich</b> Piri Raisning dengizshunoslik asari “Bahriya” bo‘yicha tahlillar .....	125
<b>Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li</b> O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligi rivojlanishida moddiy madaniy merosning o‘rni .....	132
<b>Botirov Boburmirzo Mirodiljon o‘g‘li</b> Islom manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy bosqichlari ...	143

**PIRI RAISING DENGIZSHUNOSLIK ASARI “BAHRIYA” BO‘YICHA  
TAHLILLAR****АНАЛИЗ МОРСКОГО ТРУДА ПИРИ РЕИСА «БАХРИЕ».****ANALYSES OF PIRI REIS'S NAUTICAL WORK “BAHRIYE”****Kamolov Jahongir Mamasidiqovich***Oreantal universiteti**Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD.**Tel.: +998 99-843-88-96**E-mail: [jahongir.kamolov.88@gmail.com](mailto:jahongir.kamolov.88@gmail.com)**ORCID: 0009-0005-6245-1004*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Usmoniylar imperiyasi davrida yashab, dengizchi, kartograf va olim sifatida shuhrat qozongan Piri Rais qalamiga mansub “Bahriya” asari tahlil qilinadi. Maqolada, avvalo, ushbu asarning mazmuni qaysi masalalarga qaratilgani, unda dengiz yo‘llari, portlar va qirg‘oq hududlarini tasvirlashdagi o‘ziga xos jihatlar yoritib beriladi. Shuningdek, “Bahriya”da tilga olingan sayohatlar qamrab olgan hududlar, ularning geografik xususiyatlari va navigatsion ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Matnda Piri Raisning shaxsiyati, uning dengizchi va kartograf sifatida shakllanish jarayoni, asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadi hamda nega aynan “Bahriya” (“Bahriye”, ya’ni dengizchilikka oid kitob) deb nomlanganiga doir ayrim mulohazalar ilgari suriladi. Shuningdek, muallifning Xristofor Kolumb tomonidan Amerikaning kashf qilinishi haqidagi ma’lumotlari, yangi ochilgan qit’aga doir tasavvurlari ham tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** *Bahriya, O‘rta yer dengizi, Usmoniylar, Amerika, Sulton Sulaymon, nasr, nazm, Magellan, Kolumb.*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается произведение «Бахрие» османского мореплавателя, картографа и учёного Пирей Реиса, жившего и творившего в эпоху Османской империи. Прежде всего анализируется, на какие вопросы и проблемы направлено содержание этого труда, как в нём описываются морские пути, порты и прибрежные территории, а также какие особенности морской навигации в нём отражены. Отдельное внимание уделяется регионам, по которым, согласно «Бахрие», совершались плавания, их географическим характеристикам и значению для мореплавания и торговли.

В статье также затрагиваются личность Пирей Реиса, формирование его как мореплавателя и картографа, цели написания им данного труда и причины выбора названия «Бахрие» (то есть «морская книга», «книга о мореплавании»).

Кроме того, анализируются сведения автора об открытии Америки Христофором Колумбом и представления Пири Реиса о новом континенте.

**Ключевые слова:** *Бахрия, Средиземное море, Османская империя, Америка, Султан Сулейман, проза, поэзия, Магеллан, Колумб.*

**Abstract.** This article examines the work “Bahriye” by Piri Reis, a sailor, cartographer, and scholar who lived and worked during the Ottoman Empire. First, it analyses the main focus of the book’s content, the way it describes sea routes, ports, and coastal regions, and the specific features of navigation reflected in the text. Special attention is given to the regions covered by the voyages mentioned in “Bahriye,” their geographical characteristics, and their significance for maritime navigation and trade.

The article also touches upon the personality of Piri Reis, his formation as a sailor and cartographer, the purpose for which he wrote this work, and the reasons why it was titled “Bahriye” (that is, a “sea book” or “book of navigation”). In addition, it analyses the author’s information about Christopher Columbus’s discovery of America and Piri Reis’s perception of the newly discovered continent.

**Keywords:** *Bahriya, Mediterranean Sea, Ottomans, America, Sultan Suleiman, prose, poetry, Magellan, Columbus.*

### KIRISH

Turk dengizchisi va sayyohi Piri Rais XVI asrning mashhur tadqiqotchisi hisoblanib, dengizchilik ilmiga katta hissa qo‘shgan. U o‘zi tashrif buyurgan joylarni sinchiklab o‘rganib, kuzatuv natijalari shu bilan birgalikda boshqa tadqiqotchi olimlarning ma‘lumotlaridan foydalangan holda muhim kartografik xaritalarni yaratgan. Shuningdek, tuzgan xaritalarining aksariyat qismini Bahriya asarida keltirib o‘tadi. Asarda berilgan har bir xaritaga muallif tomonidan alohida to‘xtalib, imkon qadar kengroq va to‘liqroq yoritilishiga harakat qilingan. Ushbu asarning asosiy xususiyati shundaki, unda keltirilgan ko‘plab xaritalar O‘rta yer dengizi qirg‘oqlari haqidagi geografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Qora va Egey dengizi haqidagi kartografik ma‘lumotlar mavjud. Nafaqat Usmoniylar imperiyasi geografiyasi va xaritachiligining eng muhim namunasi, balki turli fanlar uchun ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan ham asar ko‘proq shuhrat qozongan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu asarni bugungi kungacha juda ko‘plab tadqiqotchilar tahlil qilishgan bo‘lib, ayniqsa Yevropada ko‘p marta nashr etilgan. Turkiyaning o‘zida ham Usmoniylar davri tarixiga oid manbalar bugungi kunga qadar juda ko‘p marta tadqiq qilinib, o‘rganilgan. Xususan, Piri Reisning dengizshunoslik kartografiyasiga oid Bahriya asari qimmatli asarlar sirasiga kiradi. Uni tadqiq etgan ko‘pgina tarixchilar asarni o‘z davri uchun nihoyat darajada qimmatli bo‘lganligini e‘tirof etishgan. Usmoniylar davrida, xususan Piri Reis haqidagi tadqiqotlar Turkiya olimlarining

diqqat markazida bo'lgan. Bu olimlar orasida Afet İnan va Yusuf Akçura kabi shaxslar alohida o'rin tutadi. Afet İnanning “Türk Amiralı Piri Reis’in Hayatı ve Eserleri”da Piri Reisning 1513-yilgi mashhur xaritasini o‘rganishda katta rol o‘ynagan. Yusuf Akçura 1937-yilda “Piri Reis Haritasi” nomli kitob chop etgan, unda xaritadagi yozuvlarni lotin grafikasiga almashtirib qayd etgan va bu xalqaro e‘tiborga tushgan. Yuqoridagi tadqiqotlardan so‘ng bu asarni tadqiq etish ishlari yanada jonlandi. Piri Reisning “Kitab-i Bahriye” asari va Amerika qit‘asini ko‘rsatgan 1513 xaritasi bo‘yicha Turk Tarix Kurumi (TTK) tadqiqotlar olib bordi. Bu xarita 20 ta manbadan, shu jumladan Kolumb xaritasidan foydalanib chizilgani aniqlangan. (<https://21yyte.org/milli-guvenlik-ve-dis-politika-arastirmalari-merkezi/piri-reis-haritasi-nasil-cizildi/7354>)

Asar ikki qismdan, qisman she‘riy va nasriydan iborat. Bu xususda muallifning o‘zi Bahriya asarida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Bu kitobda kompas, xarita va shamollari sayoz hududlarning ahvolini har doim nazmda bayon qildim. Faqat O‘rta yer dengizidagi reja ishlarini nasrda yozdim. Chunki nazmda davom etsam, so‘zlar ko‘payib ketardi. Ish paytida, tun vaqtida, qandaydir qiyinchilik paytida uzun so‘zlar to‘g‘ri kelmaydi. Birdaniga qisqacha bayon kerak. Endilikda har bir qismning sharhlari yozilib, so‘ngra hududlarning tafsilotlari qayd etiladigan bo‘ldi. Ish paytida, tun, qiyinchilik vaqtida darhol bu kitobga qarab, unga ko‘ra harakat qilinsa inshalloh foyda topadilar” (Piri Reis, 1973:20)

Piri Raisning qachon tug‘ilgani haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Aksariyat tarixchilar uni 1465-1470-yillar oralig‘ida dunyoga kelgan degan taxmin qilishadi (Piri Reis, 1973:23).

Piri Rais Bahriya asarida o‘zini Hoji Mehmet o‘g‘li bo‘lgan G‘oziy Kamol Raisning ukasini o‘g‘li deb tanishtiradi (Piri Reis, 1973:27).

Dastlab Kamol Raisning oldida o‘zining dengizchilik faoliyatini boshlaydi. Kotibi Chalabiya ko‘ra, Kamol Rais vafot etgandan so‘ng Piri Rais Barbaros Hayriddin Posho bilan birga xizmat qilgan. Barbarosning “ko‘ngilli kemalari” tomonidan qo‘lga kiritilgan yog‘och ortilgan fransuz savdo kemasi Piri Rais tomonidan Istanbulga olib kelingan. Buning evaziga Sulton tomonidan unga faxriy libos hadya etilgan (Gökyay O.Ş., 1980: 42-43).

Shundan so‘ng bir muddat Piri Rais Gallipolida qolib, u yerda (1513-yilda) dunyo xaritasini tuzgan. Bugungi kunda bizgacha yetib kelgan, Markaziy va Janubiy Amerikaning sharqiy sohillari hamda Yevropa va Afrikaning g‘arbiy sohillarini ko‘rsatadigan xarita, ana shu dunyo xaritasining bir qismi hisoblanadi (Mine Esiner Özen. 2006. VII-2).

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Piri Raisning “Bahriya” asari kompleks yondashuv asosida, tarixiy-manbashunoslik va matnshunoslik usullari uyg‘unligida o‘rganiladi.

“Bahriya”da keltirilgan xaritalar, portolanlar va navigatsion chizmalar zamonaviy kartografiya talablari nuqtayi nazaridan o‘rganilib, ularning geografik aniqligi, proyeksiya xususiyatlari, shartli belgilar tizimi va masshtab ifodasi tahlil qilinadi.

Asarda tasvirlangan O‘rta yer dengizi qirg‘oqlari, portlar va dengiz yo‘llari boshqa zamondosh xaritalar va portolan atlaslari bilan qiyosiy solishtiriladi. Asarning strukturasi (boblar, fasllar, prolog va xotima qismi), undagi nazariy izohlar hamda amaliy navigatsion ko‘rsatmalar tizimli tahlil qilinadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Bahriya asarining yozilishining asosiy sababi Qonunni Sulton Sulaymonga sovg‘a sifatida taqdim etishdan iborat bo‘lgan. Bu haqida muallifning o‘zi ham ta’kidlab o‘tgan (Piri Reis, 1973:27).

Nasr va nazmdan iborat bo‘lgan ikki nashrdan iborat bo‘lgan ushbu asarning nasriy bo‘lgan nashrga tegishli 120-134 ta xarita saqlangan. Birinchi va ikkinchi nashrlar, shuningdek faqat xarita yoki faqat matn sifatida tasniflanganlar orasida ichki va tashqi manbalarda aniqlangan oltmishga yaqin qo‘lyozmadan yigirma beshtasi birinchi nashrdir. Ikkinchi nashrning she‘riy qismlarini Seyyid Muradi yozgani uchun, bu birinchi nashr to‘g‘ridan-to‘g‘ri Piri Reis qalamidan chiqqani uchun muhimdir. Demak, ko‘rib turganimizdek, asar katta hajmda yozilgan bo‘lib, O‘rta yer dengizi, Qora va Egey dengizlari haqidagi kartografik ma‘lumotlar, bundan tashqari Amerikaning kashf etilishi, Hind va Atlantika okeani haqidagi fikrlari, sayohatlari davomida o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar haqida bayon qilib o‘tadi.

Kitob-i Bahriya asarida Piri Rais okeanni ikkiga ajratib, Hind okeani bilan Atlantika okeani aslida bitta ekanini, ularning alohida-ayri emasligini ta’kidlaydi (Piri Reis, 1973:62). Shuningdek, Janubiy Amerikadan Xitoygacha bo‘lgan sayohat ilgari ilk bor Portugaliyadan yo‘lga chiqqan yetti ta kema orqali amalga oshirilganini, bu yetti kemadan faqat bittasi Portugaliyaga qaytib kelganini ta’kidlaydi. Shuni aytib o‘tish joizki, u bayon qilgan bu voqea Ferdinand Magellanning 1519-yilda amalga oshirgan dengiz safaridan avval sodir bo‘lgan. Magellan o‘z safarini besh kema bilan boshlagan va ulardan faqat bittasi Viktoriya kemasi ekipajda 18 ta odam bilan qaytgan (Bergreen L. 2008. 391-392). Piri Rais yozib qoldirgan ushbu ma‘lumotni tasdiqlash uchun nemis astronomi va kartografi Yohannes Shyonerning 1515-1520-yillar oralig‘ida tayyorlagan Yer globuslarida Piri Rais xaritasining janubida Magellan bo‘g‘ozining ko‘rsatilganini misol keltirish mumkin (Дузеп, Чет Ваню 2010). Bundan ko‘rinib turibdiki, muallif tomonidan berilgan fikrlar, ma‘lumotlar keyingi yillarda boshqa olimlar, kartograflar tomonidan ilgari surilgan va ular ham o‘z xaritalarida, kitoblarida shunga o‘xshash o‘z fikrlarini bildirishgan.

Piri Raisning fikricha, ilk dengiz safarlarini amalga oshirganlar barcha hududlarni xaritalashtirganlar. Bahriya asarida esa bu xaritalar Portugaliyada bo‘lgan, bir necha

kishi uni muvofiqlashtirgan va ilmda mukammal darajaga yetgan bir ruhoniya olib kelingani bayon qilinadi. Ushbu ruhoni barcha ma'lumotlarni o'zaro muvofiqligiga ko'ra bitta kitobga joylashtirgan. Shuningdek, bu yerda Xitoydan G'arbiy dengizga, ya'ni Amerika qit'asigacha bo'lgan barcha hududlar va orollar o'lehovlari bilan yozib qo'yilgani aytiladi (Piri Reis, 1973: 63). Yuqorida ta'kidlanganidek, olim asarida Xristofor Kolumbning Amerikani kashf qilishiga ham o'z mulohazalarini bildirib o'tgan. Asarda Xristofor Kolumbning yo'nalishini bayon qilar ekan, shunday deydi: "G'arb tomonda cheksiz bir dengiz bor. Uni Jazoir deb o'ylama. Qarab ko'r, u qayerda?" – deganidan so'ng, uning chegaralarini ko'p izlashgan, ammo topa olishmaganini aytadi. Oxir-oqibat u chegara-belgisiz, qoramtir bir quruqlik massasi bo'lib, oqimlar ta'siri ostida joylashganini ta'kidlaydi. Lodos, ya'ni g'arb tomonda joylashgan bo'lib, Septadan 4000 mil g'arbiga qarab yo'l bosilgach, San-Salvador oroliga yetib boriladi. U yerdan 230 mil yurgach, Kuba oroliga kiriladi. So'ng "tarixchilar nima deydi, qarang", deya davom etadi. Hijriy taqvim bo'yicha 870-yilda, ya'ni milodiy 1465-yilda topilganini aytadi (Piri Reis. 1973: 105).

Bu esa Kolumbdan 28 yil oldin sodir bo'lgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, tarix keyinchalik yana qaytadan yozilgan. Bu hududga Antillia deb nom berilgan, ya'ni bugungi Antil orollari. Janubiy Amerika esa Bertilya deb atalgan.

Shuningdek, o'z asarida qiziltanlilar haqida ham to'xtalib o'tib, ularning yuzlari yassi ekanligini, ikki ko'zi orasidagi masofa ham ochiq bo'lishini aytadi. "Go'yo bu masofa bir qarichdek", deydi (Piri Reis. 1973:106). Ya'ni bu yerda u aniq "bir qarich"ni nazarda tutmayapti, balki o'xshatish ma'nosida ikki ko'z orasidagi masofani kattaligini bildirmoqchi bo'layotganini tushunishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda ularning boshlari qush patlari bilan bezatilganini ham eslatib o'tadi.

Shundan keyin juda muhim bo'lgan, e'tiborimizni ko'proq qaratishimiz kerak bo'lgan masalaga o'tadi. Ularda "kiyah" deb atalgan bir o'simlikning borligini, uning barglarini bir marta yeganlaridan so'ng, O'rta yer dengizida kofirlarga rahm-shafqat qilmaganlarini tasvirlaydi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, bu o'simlik inson organizmida jasoratni kuchaytiradigan, shijoatini oshiradigan qandaydir gormon ishlab chiqaradi.

Xristofor Kolumbning Amerikaga kelishini bayon qilar ekan, uning aytishicha, bir kuni u yerga bir xalqni asir olish uchun Ispaniyadan kemalar kelgan. Avval ham borib kelingani sababli, bu hudud Ispaniya yo'li hisoblanganini aytadi. Dengizchilar dengizda bir qayiqni ko'rib, uni kuzatib borishadi va shu tariqa bir orolga yetib kelishadi. Kuba ana shu tarzda topilgan.

Kubada aholi ko'p bo'lgani uchun ularni asir olib, qul sifatida ishlatishgan. Kolumbning qirolga yuborgan xaritasida Kubani ko'rsatmaganining sababi ham shu ekanligi aytiladi. Piri Rais u yerdan ikki nafar tub aholi vakilini Ispaniya qiroliga

yuborishganini ta'kidlaydi. Shundan so'ng Kolumb bu hududning hokimi (volisi) bo'lgan.

Kitobda mahalliy aholiga munchoq berib, evaziga oltin olishgani, keyinchalik esa yana munchoq berib, evaziga marvarid (yoki qimmatbaho buyumlar) olishgani haqida so'z yuritiladi. Piri Rais keltirgan bu ma'lumotlarning aynan o'zi Edvard Egglestounning 1889-yilda yozilgan Amerika tarixi haqidagi ilk kitobida ham xuddi shu tarzda bayon etilgan (Edward Eggleston, 1889:10). Ko'rib turganimizdek, muallif imkon qadar hududlarning geografiyasi shu bilan birgalikda tarixini imkon qadar yoritib berishga harakat qilgan. Bu ma'lumotlar to'g'riligi bilan ham ayniqsa qiymatlidir. Asarning nomini nega aynan Bahriya deb atagani ham qiziq, albatta. Buning sababini ham Piri Rais keltirib o'tgan bo'lib, bunday deb ta'kidlaydi: "Bahri Running barcha tavsiflarini sizga yozib berdim, biz uchun bir duo qiling. Chunki, ey komilligi to'la kishi, Bu yurt xalqiga Bahr-i Rumni bilish, uning holini anglash zarur. Shu sababdan men buni yodga oldim va unga "Bahriye" deb nom berdim" (Piri Reis, 1973:110).

Olim bu so'zlari orqali asarga nom berilishi sababini ochiq-oydin ko'rsatib o'tgan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Piri Raisning "Bahriya" asari Usmoniylar davri dengizchilik ilmi, geografiya va kartografiya tarixida muhim o'rin tutadigan noyob manbadir. Asarda asosan O'rta yer dengizi havzasi, portlar, qirg'oqlar, dengiz yo'llari, shamollar va suv oqimlari batafsil tasvirlangan. Kartograf olim Piri Raisning Bahriya asari o'z davri uchun yetarli darajada mukammal edi. Bunga isbot tariqasida muallifning o'z asarida keltirgan ma'lumotlarini boshqa olim va sayyohlarning yozgan kitoblarida aynan o'zini yoki qisman o'zgartirish keltirilgan holatda ko'rishimiz mumkin. Bu esa Piri Raisning yozib qoldirgan ma'lumotlarini aniqliligini, to'g'riligini isbotlab beradi. U imkon qadar o'zi borgan, o'z ko'zi bilan ko'rgan hududlar, aholi, dengiz va ko'llarni yoritib bergan. Shuningdek, asarni bevosita Usmoniylar imperiyasi hukmdori Qonuni Sulton Sulaymonga topshirilishi uning qiymatini yanada oshiradi. Xususan, "Bahriya"ni o'z davridagi boshqa dengizchilik asarlari bilan solishtiradigan bo'lsak, uning eng katta ustunligi muallifning shaxsiy sayohatlari va kuzatuvlariga asoslanganidadir. Bu jihati bilan u faqat nazariy emas, balki amaliy qo'llanma sifatida ham ahamiyatlidir.

Asar bugungi kunda tarix, geografiya va dengizchilik ilmini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, undagi xaritalar va tasvirlar o'sha davr dunyoqarashi, Yevropa va Usmoniylar ilmiy an'analari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni anglashga yordam beradi. Masalan, Kolumb va Magellan kabi sayyohlar faoliyatiga doir ma'lumotlar asarning qamrovini yanada kengaytiradi.

Biroq “Bahriya”ning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Masalan, ba’zi geografik tasvirlar bugungi ilmiy ma’lumotlar bilan to’liq mos kelmaydi, ayrim hududlar esa subyektiv qarashlar asosida yoritilgan. Shunga qaramay, asar o‘z davri uchun yuksak ilmiy darajada yozilgan bo‘lib, Piri Raisni buyuk dengizchi va kartograf sifatida tarixda mustahkam o‘ringa ega etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Afet Inan (1983) Piri Reis’in Hayati ve Eserlari, Ankara.
2. Bergreen L. (2008) Over the Edge of the World: Magellan’s Terrifying Circumnavigation of the Globe. HarperCollins e-books.
3. Дюзер Чет Ван (2010) Глобус Иоганна Шёнера 1515 года: расшифровка исследование, издательство американского философского общества.
4. Edward Eggleston (1889) American history, New York: D.Appleton and company.
5. Fuad Ezgü (1964) Piri Reis, Islam Ansiklopedisi, M.E.B., c. IX.
6. Katib Çelebi (1980) Tuhfetü’l-Kibar fi Esfari’l-Bihar, Istanbul, O.Ş. Gökyay tarafından yayima hazirlanan nüsha, c.I.
7. Mine Esiner Özen (2006) Piri Reis ve Müntehab-i Kıtáb-i Bahriye, Osmanli Bilimi Arařtırmaları VII/2. Topkapi Sarayı Müzesi Kütüphanesi, Revan 1633 numarada kayitlidir.
8. Piri Reis (1973) Kitab-i Bahriyye. Kervan Kitabçılık A.Ş. ofset tesisleri. Türkiye cumhurbaşkanlığı Ankara.

#### REFERENCES:

1. Afet Inan (1983) Piri Reis’in Hayati ve Eserlari, Ankara. (In Turkish)
2. Bergreen L. (2008) Over the Edge of the World: Magellan’s Terrifying Circumnavigation of the Globe. HarperCollins e-books. (In English)
3. Chet Van Duzer (2010) Globus Ioganna Shyonera 1515 goda: rasshifrovka issledovaniye, izdatelstvo amerikanskogo filosofskogo obshestva. (In Russian)
4. Edward Eggleston (1889) American history, New York: D.Appleton and company. (In English)
5. Fuad Ezgü (1964) “Piri Reis”, Islam Ansiklopedisi, M.E.B., c. IX. (In Turkish)
6. Katib Çelebi (1980) Tuhfetü’l-Kibar fi Esfari’l-Bihar, Istanbul, O.Ş. Gökyay tarafından yayima hazirlanan nüsha, c.I. (In Turkish)
7. Mine Esiner Özen (2006) Piri Reis ve Müntehab-i Kıtáb-i Bahriye, Osmanli Bilimi Arařtırmaları VII/2. Topkapi Sarayı Müzesi Kütüphanesi, Revan 1633 numarada kayitlidir. (In Turkish)
8. Piri Reis (1973) Kitab-i Bahriyye. Kervan Kitabçılık A.Ş. ofset tesisleri. Türkiye cumhurbaşkanlığı Ankara. (In Turkish)

## Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

# AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**  
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**  
Musahhah: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.  
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: [al-buxoriy@orientaluniversity.uz](mailto:al-buxoriy@orientaluniversity.uz)

“AL-BUXORIY” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 17-fevral, 1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.